

Toshkent shahar hokimligida Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining uchinchi sessiyasi bo'lib o'tdi

14 fevral kuni Toshkent shahar hokimligida Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining uchinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada poytaxtimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va hududlardagi muhim masalalarni hal etishga oid masalalar ko'rib chiqildi.



Dastlab deputatlar Toshkent shahrida 2019-2020 yillarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihibalarining 2019 yilning yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlari bilan tanishdilar. Shuningdek, bu yo'naliishda joriy yilga mo'ljallangan rejalgarda e'tibor qaratdilar. Ushbu masala yuzasidan so'zga chiqqan Toshkent shahar hokimi o'rinosari Sharof Rahmonovning ma'lum qilishicha, 2020 yilda umumiyligi qiymati 2,8 mlrd.dollar bo'lgan 618 ta hududiy investitsiya loyihibalarining manzilli ro'yxati shakllantirilgan.



Sharof Rahmonov amalga oshirilishi rejalshtirilayotgan loyihalar bo'yicha ma'lumot berar ekan, Yakkasaroy tumani, Bobur va Qushbegi ko'chalari oraliq'idagi "Yakkasaroy kichik sanoat zonası" joylashgan hududda zamonaviy biznes markazlari, mehmonxonalar, yirik ko'rgazma markazlari, savdo va xizmat ko'rsatish binolarini jamlagan loyiha yuzasidan ham ma'lumot berib o'tdi.

Sessiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) Toshkent shahridagi mintaqaviy vakilining 2019 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti ham ko'rib chiqilib, ombudsman faoliyatini rivojlantirish hamda ish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berildi.



Shuningdek, yig'ilishda norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati yuzasidan Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'ining axboroti ko'rib chiqildi. Bunda deputalar qonun osti hujjatlarining ijrosi yuzasidan muhim jihatlarga e'tibor qaratishdi va bildirilgan taklif hamda tavsiyalar asosida tegishli qaror qabul qilindi.

Sessiyada Toshkent shahridagi Uchtepa va Yunusobod tumanlaridagi Ichki ishlar bo'limi boshlig'i lavozimiga nomzodlarni tasdiqlash to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqildi va taklif etilgan nomzodlar ma'qullandi.

Endi sessiya kun tartibida deputatlarning o'z saylov okrugini o'rganib, aniqlagan muammolari va ularning yechimlari ham alohida ko'rib chiqiladi. Shunga muvofiq, ushbu yig'ilishda 45-Qoratosh, 21-Qorasarov hamda 6-Cho'ponota okruglaridan saylangan deputatlarning hisobotlari muhokama etildi.

Manba:tashkent.uz